MUNITSIPAL MULKNI BOSHQARISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Yaxshiboyev Shohruh Xayitmurod o‘g‘li
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21791721

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada munitsipal mulkni boshqarish sohasida xorijiy rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy hamda institutsional nuqtayi nazardan tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida munitsipal mulklarni boshqarish uchun ayrim masalalar tahlil qilingan va tegishli takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari rivojlangan mamlakatlarda munitsipal mulkni boshqarish faqat obyektlarni saqlash bilan cheklanmasdan, balki uzoq muddatli infratuzilma strategiyasi, raqamli aktivlar reyestrini shakllantirish, shuningdek, shaffoflik, jamoatchilik hisobdorligi va maqsadli investitsiya mexanizmlari bilan uyg‘unlashgan tizim sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, OECD mamlakatlarida umumiy davlat investitsiyalarining o‘rtacha 41 foizi mahalliy darajada amalga oshiriladi, ayrim mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 50–60 foizdan ham yuqori. O‘zbekiston sharoitida mazkur tajribalarni to‘liq ko‘chirish emas, balki bosqichma-bosqich institutsional moslashtirish asosida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Maqolada yagona raqamli munitsipal aktivlar reyestri, KPI va xizmat

КАЛИТ СЎЗЛАР

O‘zbekiston, munitsipal mulk, kommunal mulk, mahalliy budjet, aktivlarni boshqarish, infratuzilma strategiyasi, munitsipal moliya, xorijiy tajriba

darajasi mezonlarini joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

ABSTRACT

This article analyzes the experience of developed foreign countries in the field of municipal property management from comparative legal and institutional perspectives and examines several issues related to the management of municipal assets in Uzbekistan, providing relevant recommendations. The research findings indicate that in developed countries, municipal property management is not limited to the maintenance of assets alone; rather, it has evolved into an integrated system that combines long-term infrastructure strategies, digital asset registries, transparency, public accountability, and targeted investment mechanisms.

According to data from the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), on average, 41 percent of total public investment in OECD countries is implemented at the local level, while in some countries this figure exceeds 50–60 percent. Under the conditions of Uzbekistan, it is considered appropriate not to replicate these practices in their entirety, but to introduce them gradually through institutional adaptation. The article develops practical recommendations for establishing a unified digital municipal asset registry and introducing Key Performance Indicators (KPIs) and service-level criteria for municipal property management.

KEY WORDS

Uzbekistan, municipal property, communal property, local budget, asset management, infrastructure strategy, municipal finance, foreign experience.

KIRISH

Global iqtisodiyot sharoitida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi munitsipal (mahalliy) mulkni boshqarishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O‘zbekistonda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun doirasida hokimliklar ixtiyoridagi aktivlar miqdori ortib borayotgan bo‘lsa-da, ulardan

keladigan daromadlar mahalliy budjet tushumlarining o‘rtacha 5-8 foizidan oshmayapti. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil etadi.

Munitsipal mulkni boshqarish hududiy taraqqiyotning eng muhim institutsional va iqtisodiy omillaridan biridir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, samarali munitsipal aktivlar boshqaruvi kam resurslardan eng maqbul tarzda foydalanish, yashash darajasini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va mahalliy moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, OECD mamlakatlarida umumiy davlat investitsiyalarining o‘rtacha 41 foizi mahalliy darajada amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda submilliy hukumatlar davlat investitsiyalarining 50–80 foizigacha bo‘lgan qismini amalga oshiradi. Bu holat munitsipal mulkni boshqarishning ahamiyati faqat mahalliy xo‘jalik yoki kommunal xizmat bilan cheklanmasdan, milliy iqtisodiy o‘sish va hududiy raqobatbardoshlikka ham bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda munitsipal mulkni boshqarishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy va tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, institutsional, tizimli, funksional va statistik tahlil usullari tashkil etdi. Qiyosiy-huquqiy tahlil yordamida Daniya, Fransiya, Angliya, Finlyandiya va boshqa rivojlangan davlatlarda munitsipal mulkni boshqarishning huquqiy asoslari, vakolatlarning taqsimlanishi, mulkdan foydalanish va uni boshqarish mexanizmlari o‘rganildi hamda O‘zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida munitsipal mulkni boshqarish yagona tizim sifatida ko‘rib chiqilib, uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va axborot elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Funksional tahlil usuli orqali mulkni hisobga olish, foydalanish, ijaraga berish, xususiylashtirish, raqamli boshqarish va monitoring qilish jarayonlarining samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda statistik va analitik usullardan ham foydalanildi. Xalqaro tashkilotlarning (OECD, Jahon banki, BMT-Habitat va boshqa ochiq manbalar) ma'lumotlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, munitsipal mulkni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi.

Shuningdek, ilmiy abstraksiya va induksiya va deduksiya usullari yordamida xorijiy tajribaning o‘rganilib, ularni O‘zbekistonning institutsional sharoitiga

moslashtirish imkoniyatlari asoslandi. Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va ilmiy xulosalarni shakllantirishda mantiqiy tahlil hamda sintez usullaridan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv xorijiy tajribaning samarali elementlarini aniqlash, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanish imkoniyatlarini baholash hamda munitsipal mulkni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Munitsipal mulkni boshqarishning nazariy asoslari

O‘zbekistonda mazkur institut huquqiy jihatdan ko‘proq “kommunal mulk” va “munitsipal mulk” tushunchalari orqali namoyon bo‘ladi. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, mahalliy hokimiyatning iqtisodiy asosini ma’muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki – kommunal mulk tashkil etadi. “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun esa mahalliy davlat hokimiyati organlariga munitsipal mulkni ijaraga berish, ishonchli boshqaruvga topshirish va u bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini qabul qilish vakolatini beradi.

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunda munitsipal mulkning boshqarishda Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari va munitsipal mulkini saqlash uchun moliyaviy manbalari aniq belgilab qo‘yilgan, mazkur Qonunga ko‘ra, munitsipal mulkni boshqarish va saqlashga doir xarajatlarni moliyalashtirish tegishincha mahalliy budjetlarning, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining, budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg‘armalarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Munitsipal mulkni boshqarishning zamonaviy nazariy modeli “aktivni saqlash” emas, balki “aktivning butun hayotiy siklini boshqarish” g‘oyasiga tayanadi. Bunda aktivni yaratish, hisobga olish, ekspluatatsiya qilish, ta’mirlash, modernizatsiya qilish va xizmat muddati tugaganda almashtirish yagona boshqaruv zanjiri sifatida qaraladi. Jahon banki bunday yondashuv kelajakda kerak bo‘ladigan investitsiyalar hajmini oldindan bilish, aktiv holati bo‘yicha qaror qabul qilish va samaradorlik mezonlarini belgilash imkonini berishini ta’kidlaydi.

OECDning ko‘p bosqichli boshqaruv haqidagi yondashuviga ko‘ra, submilliy hukumatlar mahalliy ehtiyojlarni aniqroq his etadi va investitsiyalarni shu ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Biroq buning uchun mahalliy institutsional salohiyat, shaffof qoidalar va korrupsiya xavfini cheklaydigan kuchli normativ baza talab etiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi

Xorijiy rivojlangan davlatlarda munitsipal mulklarni boshqarishda ma’lum bir modellar va ularning boshqaruv mexanizmlari joriy etilgan. Mazkur boshqaruv modellariga asosan, aktivlarning samaradorlik darajasi belgilanadi. Bu esa mazkur

davlatlarning munitsipal mulkining aniq qiymati va ahamiyati uchun muhim o‘rin tutadi.

Quyidagi jadvalda ayrim davlatlarning munitsipal mulki boshqaruvining modellari ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Model	Asosiy vakillar	Boshqaruv mexanizmi	Samaradorlik
Anglosakson	AQSH, Buyuk Britaniya	Bozorga yo‘naltirilgan, xususiylashtirish	Yuqori likvidlik
Kontinental	Germaniya, Fransiya	Munitsipal xoldinglar (Stadtwerke)	Ijtimoiy barqarorlik
Osiyo	Singapur, J.Koreya	DXSh va Smart texnologiyalar	Maksimal unumdorlik

Misol tariqasida, Germaniya tajribasini oladigan bo’lsak, Germaniyada munitsipalitetlar o‘zlarining kommunal korxonalarini yagona “Stadtwerke” xoldingiga birlashtirgan. Bu tizim energiya sotishdan olingan foyda hisobiga zarar ko‘ruvchi jamoat transportini subsidiyalash imkonini beradi. Bu usul mahalliy budjetga og‘irlik tushishini 15-20 foizga kamaytiradi. Bu esa mahalliy budjet uchun juda muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

2-jadval. Xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Davlat	Asosiy model	Statistik ko‘rsatkich	O‘zbekiston uchun taklif
Daniya	Jamoaviy munitsipal kredit instituti (KommuneKredit)	Mahalliy investitsiyalar – 46%; daromadlarning 70–80%i mahalliy soliq; bozor ulushi 99–100%	Munitsipal loyihalar uchun birlashgan moliyalashtirish platformasi
Finlyandiya	Yuqori mahalliy soliq avtonomiyasi	Davlat investitsiyalarining 57%i mahalliy darajada; xarajatlarda mahalliy ulush 40%	Aktiv va xizmat uchun mahalliy moliyaviy javobgarlik
Yangi Zelandiya	30 yillik infratuzilma strategiyasi va prudential benchmarks	Mulk solig‘i — daromadning 50%; investitsiyalar — YAIMning 1,3%i	Uzoq muddatli strategiya va moliyaviy limitlar
Fransiya	“Qarz faqat investitsiya uchun” qoidasi	34 875 kommuna; 20% ommaviy ko‘chmas mulk; ~60% fuqarolik davlat investitsiyasi	Investitsiya va joriy xarajatlarni qat’iy ajratish
Angliya	Grant + prudential borrowing aralash modeli	2024/25 kapital xarajati £31,8 mlrd; grant £13,3 mlrd; qarz £10,7 mlrd	Aktivlar va sarmoyalash bo‘yicha ochiq statistik monitoring

Fransiyada mahalliy hokimiyatlar aktivlar va investitsiyalar miqyosi bo‘yicha ulkan iqtisodiy kuchga ega. 2025-yil 1-yanvar holatiga mamlakatda 34 875 ta

kommuna mavjud. Mahalliy hokimiyatlar va ularning tuzilmalari ommaviy ko‘chmas mulk fondining taxminan 20 foiziga egalik qiladi hamda umumiy fuqarolik davlat investitsiyalarining qariyb 60 foizini amalga oshiradi. Bu yerda muhim tamoyil - qarz faqat investitsiyani moliyalashtirish uchun jalb etiladi.

Shuningdek, Angliyada mahalliy hokimiyatlarning kapital xarajatlari to‘g‘risidagi rasmiy statistika juda ochiq va detallashgan. 2024/25 moliya yilida Angliya mahalliy hokimiyatlarining kapital xarajatlari 31,8 mlrd funt sterlingni tashkil etgan. Shu jumladan, turar joy xizmatlari 10,4 mlrd funt, yo‘l va transport yo‘nalishi 8,3 mlrd funtni tashkil etgan. Kapital xarajatlarni moliyalashtirishda grantlar 13,3 mlrd funt, prudential borrowing esa 10,7 mlrd funtga yetgan.

Finlyandiya modelida munitsipal mulkni boshqarish mahalliy xizmatlar – ta’lim, ijtimoiy infratuzilma va kommunal obyektlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi bilan bog‘langan. OECD ma’lumotiga ko‘ra, Finlyandiyada umumiy davlat investitsiyasining 57 foizi mahalliy darajada amalga oshiriladi, mahalliy xarajatlar esa umumiy davlat xarajatlarining 40 foizini tashkil etadi.

Yangi Zelandiya munitsipal boshqaruvining eng qiziqarli jihati — uzoq muddatli rejalashtirish va moliyaviy intizom. OECD ma’lumotiga ko‘ra, mahalliy daromadlarning qariyb 50 foizi mulk solig‘i hissasiga to‘g‘ri keladi, mahalliy hokimiyat xarajatlarining katta qismi investitsiyalarga yo‘naltiriladi. Eng muhimi, mahalliy kengashlar 30 yillik infratuzilma strategiyasi va 10 yillik faoliyat rejasini ishlab chiqadi.

O‘zbekiston sharoitida xorijiy davlatlar tajribasini qo‘llash imkoniyatlari

O‘zbekistonda kommunal va munitsipal mulkni boshqarish uchun asosiy huquqiy zamin mavjud. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun kommunal mulkni mahalliy hokimiyatning iqtisodiy asosi sifatida belgilaydi. “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun esa mahalliy hokimiyat organlariga munitsipal mulkni ijaraga berish, ishonchli boshqaruvga topshirish, muassasalar va unitar korxonalar bo‘yicha muassislik vakolatlarini amalga oshirish huquqini beradi.

O‘zbekistonda moliyaviy nuqtayi nazardan ham muayyan imkoniyatlar mavjud. 2025-yilda mahalliy budjetlar daromadlari 65,8 trillion so‘m va xarajatlari 84 trillion so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 75 trillion so‘m va 96 trillion so‘mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu mahalliy budjetlar daromadlarining 15,5 foizga, xarajatlarining esa 13,5 foizga o‘sishini anglatadi.

Kommunal va uy-joy infratuzilmasiga oid 2026-yilgi islohotlar ham munitsipal aktivlar boshqaruvini kuchaytirish uchun amaliy baza yaratadi. Jumladan, 2026–2030-yillarda ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini

oshirish uchun 200 mln AQSH dollari miqdorida xalqaro moliya institutlari mablag‘lari jalb qilinishi, 2026–2027-yillarda respublika budjetidan 1 trln so‘m ajratilishi, 2026-yilning o‘zida esa respublika va mahalliy budjetlar hamda boshqa manbalar hisobidan jami 1,8 trln so‘mlik dastur tasdiqlangan. Bu dasturning 620,6 mlrd so‘m qismi mahalliy budjetlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Rasmiy statistik ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari balansidagi obyektlarning qariyb 15-20 foizi samarasiz foydalanilmoqda. Ijara tushumlari potentsial imkoniyatning atigi 40 foizini tashkil etadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, munitsipal mulkni samarali boshqarish professional boshqaruv, raqamlashtirish, bozor tamoyillarini qo‘llash, natijadorlikni KPI asosida baholash va shaffoflikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlarni O‘zbekiston sharoitiga bosqichma-bosqich moslashtirish munitsipal aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, mahalliy budjet daromadlarini ko‘paytirish, investitsiyalarni jalb etish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli quyidagi xorijiy modellardan foydalangan holda umumiy beshta mexanizmlarni qullash orqali aniq va istiqbolli munitsipal mulklarni boshqarish natijalariga erish mumkin hisoblandi:

aktivlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot shakllantirish;

munitsipal mulklar bo‘yicha aniq va uzoq muddatli rejalashtirish;

kiritiladigan investitsiya va joriy xarajatlarni ajratish;

shaffof moliyaviy hisobdorlikni ta’minlash;

korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy va institutsional javobgarlikning aniq taqsimotini belgilash.

Bundan tashqari, yuqoridagi xorijiy tajribalarda munitsipal mulklarni boshqarish va undan samarali foydalanishda aktivlarning aniq hisobi yuritish, ular bo‘yicha aniq strategiyalarni belgilash va unga ko‘ra, istiqbolli investitsiyalarni jalb qilish muhim jihat hisoblanadi.

Munitsipal mulkni boshqarishda “egalik qilish” yondashuvidan “samarali boshqarish” yondashuviga o‘tish davr talabi hisoblanadi. Bu islohotlar mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning bosh omilidir.

Xulosa

O‘zbekiston uchun quyidagi amaliy yo‘nalishlar eng munitsipal mulklarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish uchun maqbul deb hisoblanadi:

- munitsipal aktivlar bo‘yicha yagona raqamli reyestrni yaratish – bugungi kunda bir qancha vakolatli organlar tomonidan davlat mulki umumiy tarzda ularning hisobi yuritiladi biroq, ular aniq ikki turga ya’ni respublika va munitsipal mulkka

ajratilmagan. Shuningdek, aniq vakolatli organ belglanmagan ularning toifasini belgilash uchun hamda raqamli reyestrini yaratish uchun respublika bo‘yicha aniq vakolatli organ belgilanishi zarur hisoblanadi;

- shahar va tuman darajasida 10 yillik, yirik shaharlar uchun 20-30 yillik munitsipal aktivlar strategiyasini joriy etish – bu orqali aniq ulardan foydalanish rejalari tasdiqlanadi va eng maksimal foyda olinishiga erishiladi;

- mahalliy budjet va aktivlar boshqaruvi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri KPI bog‘lanishini o‘rnatish – daromadlarning oshishi, ijara, foydalanish haqi, dividend, xususiylashtirishdan tushum va aktivdan foydalanish samaradorligi aniq KPI orqali kuzatiladi;

- “qarz - faqat investitsiya uchun” tamoyilini normativ tartibda mustahkamlash.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, munitsipal mulkni samarali boshqarishning markazida mulkning o‘zi emas, balki undan kelib chiqadigan xizmat natijasi, moliyaviy barqarorlik va hududiy rivojlanish turadi. Daniya, Finlyandiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Fransiya va Angliya misollari munitsipal mulkni boshqarishda yagona universal model yo‘qligini, biroq ularning barchasida aktivlar reyestri, uzoq muddatli rejalashtirish, shaffoflik va moliyaviy intizom umumiy tayanch ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, xorijiy amaliyotdagi munitsipal mulklarni boshqarish tajribalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda quyidagilarni amalga oshirish orqali munitsipal aktivlarni boshqarishni takomillashtirish zarur hisoblanadi:

- “Munitsipal aktivlarni boshqarish kompaniyalari”ni tashkil etish. Bu mexanizm oqrqali munitsipal mulkni boshqarish tizimi professional asosga o'tkazilishiga xizmat qiladi. Aktivlardan samarali foydalanish samaradorligi oshadi hamda mazkur mulklarga investitsiya jalb qilish osonlashadi, shuningdek, ularning bozor qiymati oshadi. Bu kompaniyalar tashkil etilishi natijasida Mahalliy hokimiyatlarning strategik funksiyalri kuchayadi.

- “E-Munitsipal” raqamli platformasi va GIS-monitoring tizimini joriy etish. Bu orqali shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi hamda munitsipal mulkning to‘liq elektron reyestri shakllantiriladi. Aktivlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratiladi, shuningdek, foydalanilmayotgan obyektlar tezkor aniqlanadi, mahalliy budjet daromadlari ko‘payadi.

- “Performance-based Leasing” (Natijaga asoslangan ijara) tizimiga o’tish. Bunda ijara shartnomalarida nafaqat ijara to‘lovi, balki investitsiya hajmi, yaratilgan ish o‘rinlari, obyektdan foydalanish samaradorligi, xizmatlar sifati va mahalliy budjetga qo‘shilgan hissani aks ettiruvchi KPIlar belgilanadi. Ushbu yondashuv munitsipal mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantiradi, mahalliy budjet

daromadlarini oshiradi, investitsiyalarni jalb etadi va boshqaruvning shaffofligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda huquqiy baza va moliyaviy manbalarni bosqichma-bosqich kengaytirish orqali mazkur tajribalarni moslashtirish imkoniyati mavjud. 2025–2026-yillarda mahalliy budjetlar hajmining o‘sishi, ko‘p kvartirali uylar va tutash infratuzilmaga yo‘naltirilayotgan 1,8 trln so‘mlik dastur, shuningdek elektron pasportlashtirish va xalqaro moliya institutlari ishtirokining kuchayishi bu sohada tizimli islohotlar uchun real poydevor yaratmoqda. Shu bois, O‘zbekiston uchun eng to‘g‘ri yo‘l – xorijiy modellarni shunchaki ko‘chirish emas, balki ularning eng samarali instrumentlarini milliy huquqiy va moliyaviy muhitga moslashtirib joriy etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. 2025-yil va 2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-48-son qarori.
5. OECD. Funding and financing of local government public investment.
6. OECD. 2022 Synthesis Report: World Observatory on Subnational Government Finance and Investment.
7. OECD. Subnational Infrastructure Investment in OECD Countries: Trends and Key Governance Levers.
8. OECD. Multi-level Governance of Public Investment.
9. World Bank. Strategic Municipal Asset Management.
10. France, Collectivités Locales portal: local government finance and borrowing principles.
11. UK Government. Local authority capital expenditure and receipts in England: 2024 to 2025 final outturn.